

NEMISCHA VA O‘ZBEKCHA RASMIY TABRIKLARDA TERMINLARNING QO‘LLANISHI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Isayeva Gulora Faxriddinovna,

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada rasmiy matnlarda termin va terminologiya tushunchalariga izoh berish bilan birga misollar ham keltiriladi. Shuningdek, terminologik tizimlar, ularning o‘ziga xos xususiyatlari va tilshunoslikdagi o‘rni tahlil qilinadi. Terminlarning bir ma‘noliligi, emotsionallikdan xoli bo‘lishi va barqarorligi umumadabiy tildan farqli jihatlar sifatida yoritilgan. Shuningdek, maqolada terminologizatsiya va determinologizatsiya jarayonlari, umumiy va maxsus leksika o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik ochib berilgan. Muallif terminologiyani o‘rganish bo‘yicha S. Grinev va V. Tatarinovning nazariy yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilib, terminologik tadqiqotlarning metodologik, funksional va amaliy jihatlarini belgilab beradi.

Kalit so‘zlar: termin, terminologiya, terminologizatsiya, determinologizatsiya, maxsus leksika, affiksatsiya, monosemiya, tilshunoslik, semantik usul, o‘zlashma so‘zlar, bir komponentli terminlar.

Abstract. This article provides an explanation of the concepts of “term” and “terminology” within the context of formal texts, accompanied by relevant examples. Additionally, it analyzes terminological systems, their specific features, and their role in linguistics. Characteristics such as monosemy, the absence of emotionality, and the stability of terms are highlighted as distinguishing features from general literary language. Furthermore, the article explores the processes of terminologization and determinologization, as well as the interaction between general and specialized vocabulary. The author conducts a comparative analysis of the theoretical approaches of S. Grinev and V. Tatarinov regarding terminology studies and defines the methodological, functional, and practical aspects of terminological research.

Keywords: term, terminology, terminologization, determinologization, specialized vocabulary, affixation, monosemy, linguistics, semantic method, loanwords, single-component terms.

Аннотация. В данной статье, наряду с разъяснением понятий «термин» и «терминология» применительно к официальным текстам, приводятся соответствующие примеры. Также анализируются терминологические системы, их специфические особенности и место в лингвистике. Такие характеристики терминов, как однозначность (моносемия), отсутствие эмоциональной окраски и стабильность, рассматриваются как черты, отличающие их от общелитературного языка. Кроме того, в статье раскрываются процессы терминологизации и детерминалогизации, а также взаимосвязь между общеупотребительной и специальной лексикой. Автор проводит сравнительный анализ теоретических подходов С. Гринева и В. Татарина к изучению терминологии, определяя методологические, функциональные и прикладные аспекты терминологических исследований.

Ключевые слова: термин, терминология, терминологизация, детерминалогизация, специальная лексика, аффиксация, моносемия, лингвистика, семантический метод, заимствованные слова, однокомпонентные термины.

Kirish. Rasmiy matnlarga xos terminlar bir ma‘noli bo‘lishi, emotsionallik, ekspressivlikka ega bo‘lmasligi kabi belgilar bilan umumiy ishlatiladigan so‘zlardan farqlanib turadi. Terminologiyaning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan yana biri shuki, masalan, umumadabiy tilda sinonimiya, omonimiya va ko‘p ma‘nolilik tilning boyligi bo‘lsa, terminologiyada bular salbiy hodisa hisoblanadi. Shu sababli ham rasmiy matnlar terminologiyasi ma‘lum darajada barqarorlashgan bo‘lib, barcha tillarda terminlar doimiy

tartibga solib turiladi. Tartibga solish esa ma'lum terminologik me'yorlar asosida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda terminologiyaning turli yo'nalishlari va aspektlari ajratilgan: masalan, S.Grinev umumiy (maxsus lug'atdagi umumiy xususiyatlar va jarayonlarni o'rganadi), semasiologik (atamalar semantikasini o'rganadi), tarixiy (terminologiyalar tarixini o'rganadi, ularni tartiblash bo'yicha tavsiyalar beradi), kognitiv (ilmiy bilish va tafakkurda atamaning rolini o'rganadi) kabi turlarga ajratadi.

V.Tatarinov esa terminologik tadqiqotning metodologik kelib chiqishi, atama nazariyasi, filologik tadqiqotlar, funksional va stilistik tadqiqotlar, diaxronik tadqiqotlar, terminologiyani tartibga solish va standartlashtirish, terminologiya, ilmiy-texnik tarjimaning terminologik jihatlari, professional lingvodidaktika, sanoat terminologik tadqiqotlari kabi sohalarni belgilaydi.

L.Alekseeva va S.Mishlanova normosentrik (integral, mantiq bilan muloqotga yo'naltirilgan), lingvosentrik (integral, tilshunoslik bilan muloqotga yo'naltirilgan) va antroposentrik (kognitiv, odam bilan muloqotga yo'naltirilgan) terminologiyasini farqlaydilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik tahlil metodi asosiy vosita sifatida qo'llanildi. Tahlil obyekti sifatida Germaniya va O'zbekiston davlat rahbarlarining rasmiy tabrik xatlari, diplomatik notalar va xalqaro shartnomalar tanlab olindi. Nemis tilidan o'zlashgan terminlar (*Bürgermeister, Bodmerei*), xalqaro huquqiy atamalar va ularning o'zbek tilidagi muqobillari chog'ishtirma tahlil qilindi. Terminologizatsiya va determinologizatsiya jarayonlari kuzatilib, shuningdek, nemis tilidagi morfemik tahlil (suffikslar va qo'shma so'zlar) asosida termin yasalishi modellari o'rganildi.

Tahlil va natijalar. Terminlarning yana bir o'ziga xos belgisi shundaki, terminlar rasmiylashgan so'zlar bo'lganligi sababli respublika miqyosida, hatto dunyo miqyosida bir tushunchani anglatadi. Bunga xalqaro terminlarni misol sifatida keltirishimiz mumkin: *impichment, demokratiya, respublika, prezident, parlament, amnistiya, deputat, konstitutsiya, kriminologiya va h.k.* Bunday terminlar yer yuzining barcha qit'alarida bir xil ma'noda qo'llaniladi. Lekin muayyan davlatning ichki huquqiy tizimi va tarixiy an'analari bilan bog'liq bo'lgan terminlarni faqat shu davlat hududida tushunish mumkin. Masalan, *farmon, qaror* zamonaviy o'zbek davlatchiligi uchun xos bo'lsa, *yorliq* ko'proq tarixiy-huquqiy kontekstda qo'llaniladi. Shuningdek, *konvensiya* yoki *deklaratsiya* kabi so'zlar o'zbek tilining yuridik leksikasiga to'liq singib ketgan. Ularni *shartnoma* yoki *bayonot* deb tarjima qilish mumkin bo'lsa-da, xalqaro huquqiy maqomini saqlash uchun asl holicha qoldiriladi. Milliy qatlamdagi *qaror* so'zi umumiy tilda *biror ishga jazm qilishni* anglatga, yuridik termin sifatida faqat ijro etuvchi hokimiyatning rasmiy hujjati sifatidagi tor va aniq ma'noga ega bo'ladi.

Har qanday terminologik tizim umumadabiy til leksik qatlamining uzviy qismi hisoblanadi. Umumadabiy tilda maxsus leksikaning tutgan o'ri masalasi tilshunoslikda keng tahlil etilmagan. Aksariyat tilshunoslarning fikricha, tilning umumiy leksikasi bilan maxsus leksikasi o'rtasida muntazam bog'liqlik mavjud. Tilda terminologiyadagi terminning umumadabiy tilga ko'chishi, ba'zan esa aksincha, umumadabiy tildagi leksemaning maxsus leksik qatlarga o'tishi kuzatiladi, ya'ni ular bir-birini to'ldirib, boyitib boradi. Mazkur ikki hodisa tilshunoslikda *determinologizatsiya* hamda *terminologizatsiya* tushunchalari bilan yuritiladi.

Izlanishlarimiz shuni ko'rsatadiki, lingvistik adabiyotlarda terminologiyaning bosh masalasi hisoblangan terminning ta'rifi borasida yagona qarash hozirgi kungacha mavjud emas. Fikrimizcha, terminning barchani qanoatlantiradigan yagona ta'rifi yaqin yillar ichida qabul qilinmaydi. Sababi, termin tushunchasi nafaqat tilshunoslarni, balki turli soha mutaxassislarini qiziqtiradigan masaladir. Ularning har biri termin masalasiga o'z sohalaridan kelib chiqqan holda yondashadilar va bu narsa terminning umumiy ta'rifini qabul qilish masalasini yechishga monelik qiladi. Zero, termin tilning qonun-qoidasi jihatidan tilshunoslikning, ifodalagan tushunchasi jihatidan turli sohalar obyektini hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shuni ta'kidlash kerakki, terminlar umumadabiy so'zlardan tubdan farqlanuvchi leksik qatlamni o'zida mujassam etadi. Ushbu farq quyidagi asosiy xususiyatlarda aksini topadi: semiotik (terminlarda belgi va ifodalovchi o'zaro simmetrik munosabatga kirishadi); vazifaviy (terminlar nafaqat nominativ, balki definitiv funksiyaga egaligi bilan ham xarakterlanadi); semantik (terminlar faqat maxsus tushunchalarni ifodalaydi, ularning har biri o'z ma'nosiga ko'ra unikaldir); tarqalish, ommalashish (faqat fan tiliga oid terminlar muayyan qismining umumadabiy tilga kirishi ularning boshqa sistemaga xosligiga to'sqinlik qilmaydi); shakllanish yo'llari va vositalari (terminologiyada umumadabiy til so'z yasalishi vositalarining harakati maxsuslashgan, standart, turg'un modellarni ishlab chiqishga bo'ysunadi).

Bizning tadqiqot ishimizda ko'zda tutilgan rasmiy matnlar, aniqrog'i davlat rahbarlarining tabrik va qutlovlari uchun uzun jumlar, iboralar, kirish so'zlari va bog'lovchilarning ko'pligi xos va u xalqaro siyosat tilidan, jurnalistika tilidan, ma'lum darajada badiiy-adabiy tildan ham farq qiladi. Ta'kidlash joizki, bu yo'nalishdagi atamalarning aksariyati lotin, ingliz, fransuz tillarida yaratilgan yoki shu tillardan bizning tilga kirib kelgan. Shu bilan birga nemis tilidan o'zlashgan so'zlar ham talaygina: *bodmereya*(*die Bodemerei*), *burgomister*(*der Bürgermeister*), *gerb*(*die Erbe*) v.h.

Rasmiy tabrik va qutlovlar lisoniy jihatdan o'ziga xos leksik-uslubiy, morfologik va sintaktik xususiyatlarga ega. Leksik-uslubiy jihatdan rasmiy tabriklar va yozishmalar o'z atamalar tizimiga, qoliplashgan turg'un birikmalariga, sinonim, antonimlar kabi turli ifoda vositalariga ega. Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, rasmiy ish uslubi hissiy bo'yoqdor

so'zlardan xoli bo'lgani holda rasmiy tabriklar va yozishmalar hissiy bo'yoqdor so'zlarga boyligi, maqtov so'zlariga egaligi bilan ajralib turadi. Maqtov so'zlari diplomatik yozishmalarining eng asosiy turi bo'lmish nota-bayonotlarning zaruriy qismlaridan biri hisoblanadi. Ularning oz-ko'p qo'llanilishiga qarab ushbu hujjatlar ma'lum bir turlarga ham ajratiladi. Chunonchi, rasmiy tabrik yoki qutlovlarda *Janobi oliylari, Hurmatli janob, Sizga bo'lgan yuksak hurmatimga ishonch bildirgaysiz* kabi hurmat-e'zoz so'zlarining ko'p qo'llanilishi unga do'stonalik, oz qo'llanilishi esa rasmiy tus beradi. Nemis tilida esa bu birikmalar *Sehr geehrte(r) Frau (Herr), Exzellenz, mit freundlichen Grüßen, mit ausgezeichnete Hochachtung, übersende ich Ihnen meine Glückwünsche, wünsche ich Ihnen eine glückliche Hand* ko'rinishida uchraydi.

Diplomatik yozishmalar, rasmiy tabriklar alohida terminlar tizimiga ega. Ularning asosiy qismi xalqaro miqyosidagi termin bo'lgani uchun tarjimasiz qo'llaniladi. Masalan, **agriman** - *elchilikka taklif etilgan shaxsning kelishiga beriladigan rozilik*, **konfederatsiya-muayyan maqsadlarda tuziladigan ittifoq**, **assambleya** - *xalqaro tashkilotlarning umumiy yig'ilishi*, **Kansler** - *Avstriya va Germaniyada hukumat boshlig'i*, **viza-ruxsatnoma**, kabi. Shuni ham eslatib o'tish kerakki, ba'zi terminlarning qo'llanishida ikki xillik mavjud bo'lib, diplomatik terminlarda bunga yo'l qo'yish mutlaqo mumkin emas. Chunonchi, nota o'zbek tilida bayonot ham deb nomlanmoqda. Bizningcha, notaning xalqaro terminligini nazarda tutib hamda bayonotning har bir diplomatik hujjatga to'g'ri kelishini hisobga olgan holda saqlab qolinishi to'g'ri bo'ladi.

Diplomatik terminlarning ko'pchiligi qoliplashgan nutqiy birikmalardan iborat bo'lib, ularni o'zbek tiliga tarjima qilishda kalka (*fransuzcha, cal que – nusxa, so'zma-so'z tarjima qilish*) usulidan foydalanilmoqda. Misol uchun, *politische Beziehungen – siyosiy munosabatlar, die vertrauensvolle Zusammenarbeit – o'zaro ishonchli hamkorlik, langjährige enge Partnerschaft – uzoq yillik yaqin hamkorlik, verantwortungsvolle Aufgaben – mas'uliyatli vazifalar* va hokazo.

Nemis tili terminologiyasiga xos bo'lgan boshqa bir xususiyat – bu boshlang'ich harflardan tashkil topgan qisqartmalar-akronimlardir. Masalan: *EU-Europäische Union, NATO- Nordatlantische Vertragsorganisation (North Atlantic Treaty Organization), G7-Gruppe der Sieben, KI - Künstliche Intelligenz*. Bu kabi qisqartmalarni rasmiy tabrik va yozishmalarda ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan: *Gerne möchte ich die Kooperation mit Ihnen in der NATO, den G7 und zwischen unseren Regierungen fortsetzen. (Siz bilan NATO, G7 va hukumatlarimiz o'rtasidagi hamkorlikni davom ettirishni xohlayman.)* Shuningdek, terminlar muayyan bir sohaga oid bo'lib, muayyan mutaxassislar tomonidan maxsus qabul qilingan, rasmiylashgan leksik birliklar sanaladi. Shuning uchun bir tushunchani ifodalovchi termini boshqa bir so'z bilan almashtirish mumkin emas. Ya'ni bir tarmoq terminlari tizimida sinonimiya yoki dubletning qo'llanilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Masalan, *huquq, burch, shaxs, subyekt, yuridik shaxs, kriminalistika, demokrat, tergovchi, modda, jinoyat* kabi terminlar o'rniga muqobil variantlar izlash nojoizdir.

Hozirda sud huquq terminlarining o'zbek tilida qo'llanilishida quyidagi holatlarni kuzatish mumkin: 1. Ko'plab terminlar tilimiz imkoniyatlari asosida o'zbekchalashtirilgan. Bunda bir guruh terminlar o'zbek tilidagi tayyor muqobillari bilan tarjima qilinib ishlatilmoqda, bir qismi esa o'zbek tili qonun-qoidalari asosida yasalmoqda. Masalan: *auksion-kimoshdi, makler-dallol, kommersant-tijoratchi va hokazolar*. 2. Yana bir usul dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida ishlatilib kelinayotgan baynalmilal terminlarning o'zbek tiliga ham o'z holicha o'zlashtirilishidir. Bu yangidan kirib kelayotgan terminlarning hammasiga ham o'zbekcha muqobilini topish qiyin. Shuning uchun ularning asosiy qismi dunyoning ko'pchilik mamlakatlari tillarida bir shaklda o'z asl holicha ishlatiladi va bu esa o'zaro axborot almashinuvi uchun qulay. Masalan: *auditor, avizo, valyuta, veto, advokatura, adliya*.

Rasmiy matnlarida shuningdek, o'zbek tilida *daromad-foyda; isbot-dalil; president respublikasi - dualistik respublika; baho-narx; chiqim-xarajat; ish qo'zgatish - ish ochish; ko'chirma - nusxa; xorijiy davlat - chet davlat; oqlash - aybsiz deb topish; tarafdor - yoqlovchi; zarar - ziyon - shikast; buyruq - farmon; hibsxona - qamoqxona; tomon - taraf; o'rinbosar - muovin* kabi ko'plab sinonimik qatorlar uchraydi.

Yana shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nemis tilidagi rasmiy matnlarda *-ung* suffiksi orqali yasalgan atamalar ko'proq kuzatiladi: *Verordnung - nizom; Gesetzgebung - qonun chiqarish; Erklärung - tushuntirish, bayonot; Regelung - tartib; Zustimmung - ruxsat, rozilik; Verpflichtung - majburiyat, Regierung - hokimiyat*.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, nemis tilidagi rasmiy matnlarda adresat sohasiga qarab, tabrik matnlarida ishlatiladigan terminlar ham bir-biridan farq qiladi. Misol uchun, Germaniya Federativ Respublikasi federal kansleri Olaf Sholtsning Rim Papasi Fransiskga yozgan maktubida quyidagi atamalar uchraydi: *Papst (Papa), Bischof (yepiskop), Nachfolge Petri (Petrning vorisi), Heilige (muqaddas), die Gläubigen (e'tiqodlilar, iymonlilar), die Konfession (konfessiya), die katholischen Christen (katolik xristianlar), Pontifikat (Papa yoki boshqa yuqori darajadagi diniy rahbarlarning hukmronlik davri), Gottes Segen (Xudoning marhamati)*.

Frank-Valter Staynmayerning Bavariya-Myunxen futbol klubi jamoasiga chempionlar ligasida g'alaba qozonganligi munosabati bilan yozgan tabrigida sport sohasidagi quyidagi terminlarga duch kelamiz: *der Sieg (g'alaba), die deutsche Meisterschaft (Germaniya chempionati), UEFA Champions League (Yevropa Futbol Assotsiatsiyalar Uyushmasi tomonidan o'tkaziladigan chempionlar ligasi), DFB-Pokal (Germaniyaning futbol bo'yicha milliy kubogi), gewinnen (yutmoq, g'olib bo'lmoq), mitfiebern (ishqibozlik qilmoq, qo'llab-quvvatlamoq), die Leistung (yutuq; natija), die Fans (muxlislar)*.

Germaniya Prezidenti Frank-Valter Staynmayerning Germaniyadagi musulmonlarga Eid al-Fitr (Ramazon hayiti) munosabati bilan yozgan tabrik xatida quyidagi sohaviy atamalar uchraydi: *Fastenbrechen (ro'zani ochish, iftorlik qilish), Ramadan (Ramazon oyi), die Muslime (musulmonlar), der Fastenmonat (ro'za oyi), feiern (nishonlamoq,*

bayram qilmoq), die Würde (sha'n, qadr-qimmat), muslimische Gemeinde (musulmonlar jamoasi), friedliches und gesegnetes Fest (tinch va xudoning Rahmati yog'ilgani bayram).

Davlat rahbarlari o'zaro yozishgan xatlarida esa quyidagi terminlarni kuzatish mumkin: *die Wahl (saylov), die Wiederwahl (qayta saylanish), die Ernennung (lavozimga tayinlanish), die Menschenrechte (inson huquqlari), die Landsleute (fuqarolar), die Amtszeit (biror lavozimda ishlash muddati), die Verpflichtung (majburiyat), friedliche Beilegung (tinchlik yo'li bilan hal qilish), das Volk (xalq), freundschaftliche Beziehungen (do'stona munosabatlar).*

Xulosa. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, nemis tilida yozilgan rasmiy matnlarda *-ung, -heit, -keit, -schaft, -ät* kabi jenskiy rod yasovchi qo'shimchalar bilan yasalgan abstrakt otlar ko'p uchraydi. Masalan: *die Sicherheit (xavfsizlik), die Solidarität (birdamlik), die Geschlossenheit (uyg'unlik), die Beziehung (munosabat), Gleichberechtigung (teng huquqlilik), die Partnerschaft (hamkorlik).* Bundan tashqari ot+ot, sifat+ot shaklidagi qo'shma otlar ko'p uchraydi: *die Amtszeit, die Prädentschaftswahlen, die Menschenrechte, die Bundesregierung.* Nemis tilidagi rasmiy matnlarning o'ziga xosligi qat'iy morfemik modellar (suffikslar va qo'shma so'zlar) orqali shakllanadi. O'zbek tilida esa terminlar ko'pincha o'zbekchallashtirish (imkoniyatlar doirasida) yoki baynalmilal terminlarni o'z holicha qabul qilish yo'li bilan shakllanmoqda. Kelajakda diplomatik terminlarning izchil yagona tizimini ishlab chiqish va ularning o'zbek tilidagi dubletlarini tartibga solish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гринев, С. В. Введение в терминоведение [Текст] / С. В. Гринев. – Москва: Московский Лицей, 1993.
2. Татаринов, В. А. Общее терминоведение: Энциклопедический словарь [Текст] / В. А. Татаринов / Российское терминологическое общество РоссТерм. – Москва: Московский Лицей, 2006.
3. Алексеева, Л. М. Медицинский дискурс: теоретические основы и принципы анализа [Текст] / Л. М. Алексеева, С. Л. Мишланова. – Перм: Издво Перм. ун-та, 2002.
4. Nishonov P.P. Fransuz va o'zbek tillari yuridik terminologiyasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. *Filol.fan.nomz...diss.* – Toshkent, 2009.
5. Даниленко В.П., Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М., Наука, 1977.
6. [O'zME](#). Birinchi jild. Toshkent, 2000.